

Kurash milliy sport turi bo'yicha qizg'in musobaqa tashkil etildi

O'zbek kurashi bugungi kunda jahon chempionatlarida, olimpiada o'yinlarida mustahkam o'ringa ega bo'lgani bilan quvonarlidir. Kurash nafaqat sport turi sifatida balki, o'z termin va atamalari bilan ham jahon tillarida yangrayotgani g'ururimizga g'urur qo'shmaqda. Yonbosh, chala, g'irrom, dakki, halol atamalari butun dunyo tillariga o'z ma'nosi va mohiyati bilan kirib borgani katta ahamiyatga ega. Bu tasodif emas, albatta. Alpomish-u Go'ro'g'lilar talqinida kuch-quvvat va polvonlikni ulug'lagan ajdodlarimizning pok niyatlari ezgulik va qahramonlikka yo'g'rilgan. Shu asnoda vatan ozodligi va xalq osoyishtaligi hamda himoyasi borasida mardlik va jasorat ulug'langan va farzandlarini xuddi shu ruhda tarbiyalashgan. Bugungi kunda ana shu azaliy qadriyat va harakatlarning samarasini ko'rib turibmiz. Sportning deyarlik barcha turlari bo'yicha mamlakatimizdan chiqayotgan Osiyo va jahon championlari, ular ko'ksini bezab turgan oltin, kumush va bronza medallari bugungi kunda xalqimizning faxr-u iftixoriga bois bo'layotgani sir emas. Kurash bo'yicha musobaqalarini jamoa tashkilotlari va ta'lim muassasalarida muntazam ravishda o'tkazib turilishi an'ana tusini oglani sir emas.



Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida kurash milliy sport turini ommalashtirish munosabati bilan "Bu aziz vatan barchamizniki" shiori ostida 60, 66, 73, 81, 90 kilogramm va 90 kilogrammdan yuqori vaznlilar o'rtasida musobaqa tashkil etildi. Musobaqada Bosh hakam sifatida Sambo bo'yicha ikki karra Juhon championi Botir Xo'jaev qatnashib polvonlarimizni xolisona kuzatib, odillik bilan baholab bordi. Kurash shu darajada avjiga chiqdiki, gilamda bellashayotgan talabalarini zimdan kuzatayotgan fakultet dekanlari va muovinlari mabodo o'z talabasi raqibining kuragini yer iskatsa, g'olib kelsa sakrab o'rnidan turib ketishardi go'yo o'zlari kurashga tushayotgandek. Prorektor R. Choriev gilam uzra chapdastlik bilan gir-gir aylanib kurashga chog'langan yosh polvonlarni kuzatishdan aslo charchamadi. Fakultetlararo qizg'in kurashlar natijasi o'laroq, turli vaznlar bo'yicha birinchi, ikkinchi va uchinchi o'rinalar g'oliblari quyidagicha belgilandi.

60 kg.lik vazn bo'yicha.

- 1 Abdullaev Fozil (QSXET)
- 2 Safarboev Gavxarbek (GM)
- 3 Qaxxorov Sardor (GTQ)

66 kg.lik vazn bo'yicha

- 1 Og'amurodov Asilbek (QXM)
- 2 Qurinboev Abdulla (GM)
- 3 Ismatullaev Shoxaxon (QSXET)

73 kg.lik vazn bo'yicha

- 1 Abduraxmonov Shoxrux (ERB)
- 2 Shapoatov Saloxiddin (GTQ)
- 3 Yangiboev Jamshid (GTQ)

81 kg.lik vazn bo'yicha

- 1 Ruxiddinov Ramazon (GTQ)
- 2 Sultonov Umarbek (GTQ)

3 Bo'stonov Bekzod (QSXET)

90 kg va undan ziyod vazndagilar bo'yicha

1 Tojiev Xudoyberdi (ERB)

2 Erkinov Ezoz (QSXET)

3 Primbetov Ikmet (GTQ)

Jismoniy sinov intellektual kuchga ham qudrat baxsh etishi tayin, bunday yo'sindagi sport musobaqalarining tez-tez o'tkazib turilishi maqsadga muvofiq. Sog'lom tanda sog' aql bo'lishini bilgan insonlar bunga befarq qarashmaydi. Chunki shu ulug' vatan barchamizniki ekan, uning himoyasi va manfaatlari uchun hammamiz bir yoqadan bosh chiqargan holda aqlan, ruhan va jismonan sog'lom bo'lib jipslashsakkina barkamol vatanning sharafiga, shan-shavkatiga hissa qo'shgan bo'lamiz.



TIQXMMI matbuot xizmati